

TURIZM VA SPORT TURIZMI TUSHUNCHALARINING MAZMUN-MOHİYATI VA SHAKLLARI

G'ofurov Azizbek Umarjonovich

**Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7838012>

Annotasiya: Mazkur maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda yangicha yondashuvga asoslangan ta'lim standartlari joriy etish faolligini oshirishda, tanlagan kasbiga nisbatan mas'uliyat hissini uyg'otishga, jamiyadagi turli islohotlarni rivojlantirish to'g'risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'z va iboralar: ijtimoiy-iqtisodiy, mustaqil ta'lim, zamonaviy dunyoqarash, ijtimoiy zarurat, uzluksiz ta'lim, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, innovasion va raqamli, ta'lim standartlari, Ta'lim va tarbiya, ilmiy-metodik.

Kirish (Видение/Introduction). Bugungi kunda turizm faoliyati har bir mamlakat uchun muhim ijtimoiy sohaga aylanib ulgurdi. Chunki turizm faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish orqali mamlakat iqtisodiy daromad manbaiga ega bo'lish bilan birga o'z nomini jahongan tanitish, dunyo aholisini jalb qilish, investisiya kiritish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. O'zbekistonda ham turizm sohasini rivojlantirishga doir ko'plab islohotlar, tizimda modernizasion jarayonlar olib borilmoqda.

Turizm dunyoni ko'rish, bilish, o'rganish va dam olish maqsadida tashkil etiladigan sayr-sayohat ma'nosini anglatadi va u sayyoramizdagi odamlar hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Turizm va turistik faoliyatda inson tabiatga, turli mamlakatlar madaniyatiga, xalqaro aloqalarni rivojlantirishga, jismoniy va ruhiy quvvatni tiklash, sog'lomlashtirish, ilmiy-tadqiqot va badiiy ijodni rivojlantirishga hissa qo'shadi. Shu ma'noda bo'lajak kadrlarni turistik faoliyatga yo'naltirish va bu orqali ularning dunyoqarashi, hayot tarzi va ish faoliyatiga nisbatan motivasiyani oshirishga qaratilgan pedagogik jarayonni takomillashtirish dolzarb muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5326-son Farmonida ta'til davrida Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon, Marg'ilon va Toshkent shaharlarida talaba-yoshlar va o'quvchilar uchun ularning tarix, madaniyat va o'zbek xalqining ana'nalari to'g'risida bilimlarini oshirishga yo'naltirilgan turli konsert dasturlari, teatrlashtirilgan tomoshalar va boshqa tadbirlar o'tkazilishini nazarda tutuvchi madaniy-bilishga oid «Shahar haftaligi» festivallarini o'tkazish; «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!» ichki turizmni rivojlantirish Dasturida ishtirok etishga talaba-yoshlarni da'vat qilish vazifalari belgilangan.

Turizmga oid kategoriyalarning ilmiy-nazariy asoslariga oid M.Alimovanning ilmiy tadqiqot ishida «turizm – bu elementlari o'zaro poliiyerarxik aloqalar va munosabatlar tizimi orqali bog'langan, pirovard natijalarga erishishda bevosita tashrif buyuruvchilarning ishtiroki bilan tavsiflanadigan, tarmoqlararo majmuaning ko'p qirrali funksional tuzilmasi negizida shakllanadigan hamda tashqi muhit o'zgarishiga yuqori ta'sirchanlikka ega ochiq murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir», [1:7] deb ta'rif berilgan. Berilgan ta'riflarda turizmga ob'yektiv faoliyat sifatida tadqiq etilganini ko'rish mumkin. Fikrimizcha, ushbu sohani mamlakatimizda shakllanishi va rivojlanishida o'ziga xos madaniy xususiyatlarini inobatga olish zarur. Bu

xususiyatlar turizm va uning madaniy faoliyat shakli sifatidagi o'ziga xosligi bir qator sabablarga ko'ra vujudga kelib, ularning eng asosiysi ijtimoiy-madaniy voqelikning rivojlanish tendensiyalari bilan izohlanadi. Shu bois ham turizmni nuqtai nazaridan tahlil etish va soha rivojiga to'siq bo'layotgan muammolarni ijtimoiy-falsafiy tahlil etish falsafiy tadqiqotlar oldida turgan muhim vazifalardan biriga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (литература и методология /Methods). Boshqa bir ta'rif rus sosiologi P.Sorokin tomonidan ishlab chiqilgan va bu ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega. Unga ko'ra, «turizm asosan farovonlik, sog'liq, jismoniy barkamollik, estetik ehtiyojni qondirish sohasidir».[2] Ushbu fikrda olimning G'arb sivilizatsiyasi tarixida shaxsning dunyoqarashi, madaniyati, aksiologik ong tizimining ustuvorligi haqidagi qarashini bilish mumkin. Demak, turizm madaniyati ham inson estetik ehtiyojini go'zal va madaniy shaklda qondirishni anglatadi.

Turizmning ijtimoiy-falsafiy mazmunini tadqiq etgan ingliz sosiologi Z.Bauman bo'lsa, zamonaviy jamiyatda turizmdan intellektual va ijodiy faoliyatning yangi shakli sifatida foydalanishni, shaxsda ilmiy va amaliy bilimlarni rivojlantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi.[3] Olimning mulohazalari bo'yicha, turizm madaniyati sayohatchining intellektual va ijodiy faoliyatini faollashtirishni o'z ichiga oluvchi faoliyat sifatida baholasak, inson shaxsini shakllantiruvchi ijtimoiy, siyosiy, gnoseologik, aksiologik, estetik, madaniy faoliyatni rivojlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Globallashuv jarayonlari jadallashtirilishidagi ulushi, insonning real axborot olish faoliyatiga ta'siri hamda shaxsning faol turmush tarzi sifatini oshirishi xususiyatlar uni ijtimoiy-falsafiy tadqiqot ob'yekti sifatida tahlil etishga ehtiyojni vujudga keltirmoqda. Boshqa bir ingliz sosiologi J.Urri turizm sohasini ijtimoiy dastur sifatida, dunyoni bilishning zamonaviy usuli sifatida talqin etgan.[3:7] Yana bir ingliz tadqiqotchisi A.Ya.Fliyer fikricha, «turizm – insonni va uning tana qiyofasini tuzatuvchi intellektual dam olish usulidir».[5] I.T.Kasavin turizmni «bilimning yangi ontologiyasi»[6] deb nomlab, insonning sayohat qilishi – bilim olish imkoniyati ekanligini ta'kidlaydi.

Bizningcha, turizm madaniyatini nazariy-metodologik tadqiqi uning ikki mustaqil tushuncha, «turizm» hamda «madaniyat»ning o'zaro birikuvidan iborat ijtimoiy-madaniy ahamiyatga molik fenomen ekanligidan dalolat beradi. Madaniyat inson faoliyatining mahsuli bo'lsa, turizm aynan moddiy va ma'naviy boyliklarning mazmunan o'zga xalq vakillari tomonidan anglanishini ta'minlovchi intellektual-emosional faoliyatdir. «Turizm madaniyati» tushunchasida esa o'z-o'zidan bu ikki tushunchaning o'zaro uyg'unligi, ya'ni insonlarning turli joylarda sayr-tomosha, dam olish va sayyohlikni tashkil qilishlaridagi muayyan madaniyat darajasi nazarda tutiladi.

Mamlakatimizda turizm madaniyatini rivojlantirishning yana bir muhim omillaridan biri bu turizm faoliyatiga yoshlarni yo'naltirish va yuqori sifatli ta'lim berish va mutaxassislar tayyorlashdir. Turizm sohasida ta'lim jarayonini tashkil qilish, hozirda tez rivojlanayotgan yo'nalishlardan biridir. Unda gumanitar, ijtimoiy, geografik, iqtisodiy va boshqa fanlar mujassam bo'lganligi bois, ko'pqirrali fanlar doirasiga kiradi. Turizm sohasida ta'lim olishga katta turtki egiluvchan va turli ta'lim tizimini kiritish hisoblanadi. Mehnat bozorida katta raqobatchilikka dosh beradigan turizm sohasidagi mutaxassislarga talab o'sib bormoqda.

Turizm sohasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilishi, mazkur mutaxassislarga O'zbekistonda ham talab kuchayishiga olib keldi, bunda mutaxassislarning tayyorgarligi mazkur tarmoq talabini oshirishga olib kelishi shart. Buning uchun turizm faoliyatiga yo'naltiruvchi ta'lim

shakllaridan, xususan, muzey pedagogikasidan foydalanish yuqori samara beradi. Turistik xizmatlar sohasi mintaqada turistik biznesning rivojlanishi va turistik xizmatlar sifatiga ta'sir etuvchi majmualar turistik infratuzilmani o'z ichiga qamrab oladi. Boshqa sohalarning ta'siriga qaramay, turizmning samaradorligi tashkiliy – iqtisodiy sharoitlarning ta'minlanishiga bog'liq, ular esa mintaqaviy turizm sohasini idora etishdagi davlat siyosati masalalarini yechish asosida erishilishi mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarni turistik faoliyatga yo'naltirishda quyidagi vazifalarni hal qilishga maqsadga muvofiq bo'ladi. Xususan:

- amaldagi o'quv reja, dastur va darsliklarga turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo'yicha bilim, malaka va ko'nikma hosil qilishni yetarli darajada singdirib borish;
- talabalarda turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish jarayonida qo'llaniladigan metodlar hamda yondashuvlarning mazmun-mohiyati va uni tanlash tamoyillarini pedagogik nuqtai-nazardan baholash texnologiyalarini ishlab chiqish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka hosil qilishning interfaol usullarini aniqlash, ularni amalga oshirish metodikasini ishlab chiqish va o'z vaqtida ta'lim jarayoniga tatbiq etish;
- talabalarda turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo'yicha bilim, malaka va ko'nikma hosil qilish yuzasidan amaliy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;
- talabalarda turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish orqali ular ongiga vatanparvarlik, tabiatga muhabbat va uni e'zozlash g'oyalarini singdirib borish;
- talabalarda turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish muammolarining muvaffaqiyatli hal etilishi bo'lajak yosh mutaxassislarning egallagan sohasidan qat'iy nazar borliqni, undagi xalqlar va davlatlar yaratgan sivilizasiya, egalik qilayotgan va muhofazalashga majbur bo'lgan tabiati haqida yetarli tasavvurlarni hosil qilishga imkon beradi.

Bu jarayon o'z navbatida turizm madaniyatining ijtimoiy nufuzini oshirib, kadrlar tayyorlashning milliy modelini yaratishga xizmat qiladi. Bu vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi o'z navbatida bo'lajak mutaxassislarning turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka hosil qilishda muhim omil hisoblanadi.

Axborot oqimining tezlik bilan tarqalishi, millatlar va madaniyatlararo integrasiya, qolaversa, talaba shaxsining «informasiyalashgan muhit»ga tez moslashuvi natijasida ta'lim prinsiplari hamda metodlarini tubdan qayta ko'rib chiqish butun dunyoda dolzarb masalaga aylandi. Bugungi kunda yoshlarni ta'lim olishga chorlashning o'zi «san'at» darajasiga yetmoqda. Keyingi yillarda milliy pedagogikamizga turlicha yangi g'oyalar va tushunchalar kirib kelmoqda. Ayniqsa pedagogik ta'lim innovation klasteri qo'llanilishi ommaviylashmoqda. Aslida «klaster» tushunchasi sohada terminologik jihatdan yangi bo'lsa-da, mohiyatan sharq pedagogikasiga begona emas. Ya'ni bir maqsadga yo'naltirilgan muassasa va vositalarning hamkorligi, boshqacha qilib aytganda, birlashgan holda ko'zlangan manzilga yetib olish. Ushbu masalani o'rganish asnosida yana bir vosita samarali natija berishi aniqlandi.[8] Bunda zamonaviy o'qitishning barcha usullari va shakllaridan unumli foydalanish mumkin. Shu kunga qadar faol amalda bo'lgan ta'lim shakli va texnologiyalari fundamental asosga ega.

Lekin multimediya vositalariga ipsiz bog'langan «virtual olam» odamlarini faol o'qitish uchun ham turistik savodxonlik kerak.

Xorijiy davlatlar pedagogikasi va ta'lim siyosatini o'rganar ekanmiz, bu sohaga alohida ahamiyat qaratilayotganini kuzatish mumkin. Masalan, ta'lim orqali turizmga yo'naltirishdan Rossiya va Yevropada faol foydalanilmoqda. Turli xil ta'lim tizimlarida bu jarayon aniq namoyon bo'lmoqda va innovator pedagoglar tomonidan yuqori samarali o'qitish texnologiyasi sifatida baholanmoqda.

Natijalar (Результаты/Results). Ta'lim orqali turizmga yo'naltirish deganda – oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarida belgilangan reja va vazifalarni bajarish maqsadida tashkil etiladigan, yo'naltiriladigan bilim olish tushuniladi. Pedagogik ta'lim innovasion klasteri quyi, o'rta va oliy ta'lim muassasasi sub'yektlarini qamrab olishini nazarda tutadigan bo'lsak, ta'lim orqali turizmga yo'naltirish ham muayyan maqsadga erishish uchun maktabdan tashqari hamda o'rta-maxsus, shuningdek universitet, doktorantura, universitetdan tashqari ta'lim turlarini birlashtiradi.

Ta'lim orqali turizmga yo'naltirishni rivojlantirish uchun tur agentliklar va firmalar bilan ta'lim muassasalari ham hamkorlik shartnomalari tuzishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston ta'lim siyosatida ta'lim orqali turizmga yo'naltirishga e'tibor qaratish strategik ahamiyatga ega, ya'ni oliy ta'lim talabalarining ta'lim safari, ekskursiyalari asosida ta'lim turizmining asosini ishlab chiqish kerak. Ta'lim orqali turizmga yo'naltirish bo'sh vaqtdan unumli foydalangan holda madaniy-ma'rifiy tadbirlarni bilim bilan birlashtiradigan turizm turlaridan biridir. Muzey pedagogikasi esa bu jarayonni rivojlantirib boruvchi, talabaning emosional holatiga ta'sir ko'rsatishga urinuvchi faoliyat turi hisoblanadi. Barcha fanlarni amaliy o'rganish birlamchi maqsad bo'lsa, unga erishtiruvchi vositalar bu ta'limning ikkinchi darajali maqsadi bo'lishi mumkin.

Ta'lim orqali turizmga yo'naltirish dasturining xususiyatlari, tashkil etilishi va o'tkazilishi bir qator omillar bilan belgilanadi. Misol uchun, muzey pedagogikasi orqali muzeylarning asl ta'sir kuchini talabaga ko'rsatib berish orqali ularni turistik faoliyatga yo'naltirish ham shu maqsadga qaratilgan, aslida.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik ta'lim innovasion klasteri asosida ta'lim orqali turizmga yo'naltirish uchun quyidagi mexanizmni taklif etamiz:

- talabalarining bilim ehtiyojlarini qondirish maqsadida hamda qobiliyatini amalda namoyon etishga mo'ljallangan ta'lim resurslarini muayyan hudud (muzey)ni turistik ob'yekt sifatida belgilash;
 - turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, qo'mita saytini talabalar tomonidan hudud manzarasi aks etgan lavhalar bilan boyitish;
 - geografik hudud landshafti, tabiat estetikasi bilan tanishtirish, hudud manzarasini tasvirlash jarayonida nazariy bilimlarni mustahkamlash;
 - arxitektura yodgorliklari, tarixiy ziyoratgohlar, tipik qishloq aholi punktlari, me'moriy majmualar, tarixiy markazlar, amaliy san'at namunalari tanishtirishda ilmiy muassasalar, oliy o'quv yurtlari, botanika bog'lari, hayvonot bog'lari, okeanariumlar shular jumlasidandir
- Sayohatlarning kelib chiqish va rivojlanish tarixi er kurrasidagi barcha insonlarning qadimgi ijtimoiy mehnat va turmush madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Insonlar mehnat qurolini yasash, olov yoqishni kashf etgan davrlarda yovvoyi hayvonlarni ov qilish, yirtqich-vahshiy hayvonlarga qarshi kurashish jarayonlarida qir-adirlar, tog'lar osha yurish-yugurish,

tez oqar suvlardan kechib o'tish, yaylovlar, go'zal manzarali joylarda dam olish, tunab qolish, bir necha kunlar poylab yotish kabi hayotiy murakkab faoliyatlarni bajarishga to'g'ri kelgan.

Sportturizmining turlari:

- piyodayurish-sayyohlik yo'nalishida harakatlanish asosan piyoda amalga oshiriladi. Asosiy vazifa - relef va landshaft to'siqlarini piyoda, yuqoritoifadagi qiyinchiliklar uchun — qiyin relef va iqlim sharoitida bo'lgan joylarda engib o'tish.

- chang'it turizmi - sayyohlik yo'nalishi bo'yicha harakatlanish asosan chang'ida amalga oshiriladi. Asosiy vazifa - qor va qor-muz qatlamidagi relef va landshaft to'siqlarini chang'ida, yuqoritoifadagi qiyinchiliklar uchun — qattiq iqlim zonalarida vatog'li hududlarda engib o'tish

- tog' turizmi - baland tog'larda piyodayurish. Asosiy vazifa - tog' dovonlaridan o'tish, cho'qqilarga chiqish.

- suv turizmi - odatda tog'li hududlarda rafting vositalarida (kemalarda) daryolar bo'ylab rafting.

Asosiy vazifa - daryo tubining relef va uning oqimining xususiyatlarini natijasida hosil bo'lgan suv to'siqlaridan o'tishdir.

- speleoturizm - yer osti bo'shliqlari (g'orlar, g'ortizimlari, shujumlardan qisman suv bosgan) bo'ylab sayohat.

Asosiy vazifa - g'orlarda uchraydigan strukturaviy to'siqlarni engib o'tishdir.

- yelkanli turizm - dengizda yoki yirik ko'llarning suv zonalarida suzib yuruvchi kemalarda sayohat. Asosiy vazifa - ichki suvlarda va ochiq dengizda suzish qoidalariga muvofiq kema ning sayohat rejasini bajarishdir.

- transport vositalarida - velosiped turizmi, ot sport turizmi va avtomobil turizmi - o'z ichiga olgan bo'lim. Asosiy vazifa - uzoq yo'nalishdagi relef-landshaft to'siqlarini (har xil relef va qoplamali yo'llar va yo'llar, o'tish (o'tish) yoqasidagi yo'llarga), sayyohlik, chorvachilik va hayvonlarning migrasiya yo'llari, o'tish joylarini o'tish joylari; tog' dovonlari, traverslar va boshqalar. d.) qiyin sharoitlarda, odatda iqlim va topografiya qiyin bo'lgan tog'li yoki qo'polerlarda.

- estrodiol turizm - turizmning har xil turlari elementlarini birlashtirgan sayohatlar;

- Motosikl turizmi - motosikl transport vositasi sifatida xizmat qiladigan turizm turlaridan biridir.

“Motosikl turizmi” tushunchasi noaniq bo'lib, ochiq havoda o'tkaziladigan sport turlaridan biriga ham, turli xil sport turizmiga ham tegishli.

Piyoda yurish turizmi sport klassifikatsiyasida maxsus tur bo'lib hisoblansa-da, turizmning deyarli barcha turlarida u yoki bu darajada qo'llanilishi tabiiy bir holdir. qolaversa, bir kunlik yoki tunab kelish sayohatlarida piyoda yurish o'ziga xos mazmun, shakl va usullarga ega bo'lib, sport razryadi (darajasi) mezonlari (normativ) talab etilmaydi.

Piyoda yurish sayohati deganda eng avvalo qatnashchilarning mo'ljallangan yo'nalish (marshrut) bo'yicha bevosita qadamlab (piyoda) yurish tushuniladi. Bunda sayohat qoidalarini va talablari asosida kerakli kiyim-kechaklar, buyumlar, oziq-ovqatlar, sayohat jihozlarini to'rvaga (ryukzak) joylashtirib, elkada ko'tarib yurish shart bo'ladi. Shuning sayohat yo'lining sharoitlari (past-baland, to'siqlar, ariq- ko'lmak, daryo suvlari, chakalakzor va h.k.) piyoda yurishda e'tiborga olinadi.'

Muhokama (Обсуждение/Discussion).Bundagi nazariy bilimlar, tushunchalar va amaliy malakalar jamoadagi (o'quv va mehnat kollektivlari) turizm sektsiyasi mashg'ulotlarida, sayohat oldidan uyushtiriladigan maxsus tayyorgarlik mashg'ulotlarida va jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'qituvchi (instruktor) tomonidan olib boriladi.

Yoshlarning dam olish, bayram kunlarida uyushtiriladigan bir kunlik (I bosqich) sayohatida aytarli ortiqcha yuk bo'lmaydi. Faqat oziq- ovqat, to'p, musiqa asbobi, shuningdek, agar palatka o'rnatish, gulxan yoqish mo'ljallangan bo'lsa, kerakli jihoz va asboblarni bir necha faol o'quvchilarga topshirish rejalashtiriladi.

O'quvchilarning birinchi va ikkinchi bosqich sayohatlariga tayyorlanish tartibi bir-biridan unchalik farq qilmaydi.

Birinchi bosqichda maktab ma'muriyatining ruhsatini olish va ikki- uch kun avval yurish rejasini tayyorlash kifoya. Yurish marshruti va rejasidagi talablar 6-8 km masofani piyoda o'tish, yo'lda kolleksiya va gerbariylar to'plash, sayr qilish, joylarning qisqa tarixi bilan tanishish, yurishda yurish tartibiga rioya qilishdan iboratdir.

Ikkinchi bosqichdagi yurishga esa (tunash sharti bilan) ancha vaqt tayyorlanishga to'g'ri keladi. Buning uchun birinchi navbatda marshrut rejasini tuzish va uni tasdiqlash, sayohat davomida suhbat, ma'ruzalar o'tkazish, topografik belgilar bilan izchil tanishish, sxemalar tuzishni o'rganish, turizmning texnik turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish rejalarini tuzish, o'quvchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, kerakli jihozlarni taxt qilish, oziq-ovqatlar uchun smetalar tuzish kabi muhim ishlarni avvaldan ishlab chiqish va to'la tayyorlash talab etiladi.

Turistiksayohatlarningtahminiyyrejasi:

1. Sayohatningasosiyvazifalarinianiqlash.
2. qatnashchilarguruhinianiqlashvatuzish.
3. qaysijoylardabo'lishnibelgilash.
4. Sayohatqilinadiganjoylarto'g'risidaaxborotto'plash.
5. Marshrutniishlabchiqish.
6. Sayohatuchunqanchavaqtketishinihisoblash.
7. Taqvim-rejatuzish.
8. Ovqatlanishtartibinivasharoitinibelgilash.
9. Sayohatuchunsarfbo'ladigansmetanituzish.

Razryadlituristikyurishlar, ya'nikategoriyagaegabo'lgansayohatlarga, yo'llargatayyorlanishdaharbirqatnashchigaalohidavazifaberiladi.

1. Guruh Sardori (komandiri) (har 10-15 kishigabitta).
2. Siyosiyrahbar.
3. Oziq-ovqatbo'yichaxo'jalikmudiri.
4. Turistikjihozlaruchunjavobgarkishi.
5. Kotib.
6. Ta'minishlaribo'yichausta.
7. Sanitar-instruktor.
8. Jismoniytarbiyatashkilotchisi.
9. Muhbir.
10. Fotograf.
11. Komendant (dam olishvatunashpaytlaridatayinlanadi).
12. Guruhrahbari (o'qituvchi).

Xulosa

Xulosaqilibaytganda, turizmbo'yichainstruktorkadrlartayyorlashdamustaqilg'oyalarinisingdiri sh, ma'naviy-ma'rifiymadaniyattarbiyasiniustunqo'yish, aholiningsihat-salomatligini yaxshilash va o'quvchi yoshlarning jismoniy barkamolligini o'stirish yo'llari asosqilib olinishi lozim.

Instruktorlarning mavqesini oshirish,

o'zishlaridamas'uliyatlarinichuqursezish vaturizmga ommaviy ravishda hissa qo'shish maqsadid aularga maxsus guvohnomalar (sertifikat) vako'krak kataqiladigan nishonlarni (znachok) tayyorlash, hamda ularga taqdim etish eng muhim tarbiyaviy jarayondir.

Umumiy xulosasida,

mamlakatdaturizm harakatini tashkil qilish va boshqarish davlat hamda jamoatchilik tizimlaritash kiletilib, ular aholining turizm bilan faol shug'ullanishlariga imkoniyatlar yaratmoqda

References:

1. Структура ИКТ-компетентности учителей. Рекомендации ЮНЕСКО. – Гамбург, 2011. URL: <http://ru.iite.unesco.org/publications/3214694>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 28.04.2020 йилдаги ПҚ-4699-сон. <https://lex.uz/docs/4800657>
3. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиси касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Т., 2007. – Б.130.
4. Слободчиков В.И. Инновационные образования. // Школьные технологии. – Москва, 2005. - №2 – С.36.
5. Уразова М.Б. Совершенствование технологии подготовки будущего педагога профессионального образования к проектировочной деятельности: Дисс. ... док. пед. наук. – Т., 2015. – Б.57-61.
6. Уразова М.Б. Совершенствование технологии подготовки будущего педагога профессионального образования к проектировочной деятельности: Дисс. ... док. пед. наук. – Т., 2015. – Б.57-61.
7. Совет Европы: Симпозиум по теме «Ключевые компетенции для Европы»: Док. DECS / SC / Sec (96) 43. – Берн, 1996.
8. Стратегия модернизации содержания общего образования: Материалы для разработки документов по обновлению общего образования. – М.: ООО «Мир книги», 2001. – 95 с.
9. Педагогический словарь. /Под.ред. В.И.Загвязинского, А.Ф.Закировой. – М.: Академия, 2008. – С.41.